

**FIKR, SO'Z VA E'TIQOD ERKINLIGINING KONSTITUTSIYAVIY
ASOSLARI*****TURAKULOV BOYBURI KUZIMURATOVICH****IIV Surxondaryo akademik litseyi huquqshunoslik fani bosh o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fikr, so'z va e'tiqod erkinligining konstitutsiyaviy asoslarini tahlil qiladi. Tadqiqotda konstitutsiyaviy qoidalarni amaliy qo'llanilishi, mavjud cheklovlar va ularning asosliliigi, shuningdek, ushbu erkinliklarni ta'minlashdagi davlatning roli va vazifalari o'rganiladi. Huquqiy tahlil usuli yordamida olib borilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonning xalqaro huquq normalari va demokratik davlatlar tajribasiga muvofiqligi yuzasidan xulosalar beradi. Tadqiqot natijalari huquqshunoslar, siyosatchilar va inson huquqlari himoyachilari uchun qiziqish uyg'otishi mumkin.

Kalit so'zlar: fikr erkinligi, so'z erkinligi, e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi

Konstitutsiyamizning 33-moddasida qayd etilganidek: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi."

Insonning o'z fikrini erkin ifoda etish huquqi o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?

Insonning o'z fikrini erkin ifoda etish huquqi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- 1), har qanday axborotni izlash;
- 2), har qanday axborotni olish;



3),har qanday axborotni tarqatish;

4),har qanday axborotni yozma yoki nashr shaklida yoxud badiiy shaklda ifodalash erkinligini amalga oshirish imkonini beradi (istisno holatlar ham mavjud).

Insonning soʻz va fikrlash erkinligiga nisbatan qonun hujjatlarida muayyan istisnoli holatlar belgilangan va birinchi navbatda bu holatlar xalq farovonligini va tinchligini taʼminlash, davlatning konstitutsiyaviy tuzumiga zid boʻlmaslik, doimo taraqqiyotga xizmat qilish bilan belgilanadi. Ushbu erkinlikni suiisteʼmol qilib sharmhayosiz asarlar yaratish, fikrlash, soʻz va matbuot erkinligidan konstitutsiyaviy tuzumga qarshi maqsadda, boshqalarni badnom qilishni koʻzlab, axborotlar izlash, olish va tarqatish huquqidan boshqalarni shaxsiy hayot sirlari yoki davlat, xizmat yoiniki tijorat sirlarini oshkor etish uchun foydalanishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli boʻlgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin. Konstitutsiyamizning barcha moddalarida ham, garchi ularning matnida axborot va soʻz erkinligi, matbuot erkinligi, fikr erkinligi, eʼtiqod erkinligi kabi tushunchalar ishlatilmagan boʻlsa-da, inson va fuqarolarning ana shu huquq hamda erkinliklari taʼminlanishi, himoya etilishiga xizmat qiladi.

Insonning fikrlash erkinligi qanday amalga oshiriladi?

!,"Insonning fikrlash erkinligi deganda, soʻz orqali amalga oshiriladigan, fikrini ochiq soʻzlash va boshqa shaxslarning eʼtiboriga yetkazish huquqi tushuniladi."

Koʻp holatlarda soʻz erkinligi har bir insonning oʻz fikrini ommaviy axborot vositalarida chiqish, oʻz fikr va eʼtirozlarini ochiq soʻzlash erkinligi bilan bogʻliq boʻladi.

!,Bu erkinlik quyidagi normativ huquqiy hujjatlar bilan kafolatlangan.Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;"Axborot olish kafolatlari va erkinligi toʻgʻrisida"gi Qonun;"Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida"gi Qonun;"Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida"gi Qonun.

Bir soʻz bilan aytganda, fikrlash, soʻzlash erkinligi, axborotlarni izlash, olish va tarqatish huquqi fuqarolarga davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etish imkonini beradi. Shu oʻrinda mustaqillik yillarida mamlakatimizda fuqarolarning



soʻzlash erkinligi, axborotlarni izlash, olish va tarqatish huquqlarini taʼminlash borasida chuqur demokratik islohotlar amalga oshirilib kelinayotganligini qayd etib oʻtish joiz.

Ushbu qonunlarda soʻz erkinligi muayyan huquqlar bilan bir qatorda maʼlum burch va majburiyatlar mavjudligini ham taqozo etadi. Xususan, ular quyidagilarda namoyon boʻladi:

boshqa shaxslar huquqi va obroʻsini hurmat qilish;

davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi sogʻligʻi va qadriyatlarini himoya qilish.

Fikr, soʻz va eʼtiqod erkinligining huquqiy asoslari nimalarda oʻz ifodasini topadi?

Insonning soʻz va fikrlash erkinligi huquqiga doir konstitutsiyaviy normalar joriy qonunlarda rivojlantirilgan.

Xususan, insonning gazeta, jurnal, televideniye va radio dasturlari va ommaviy axborot vositalari orqali maʼlumotlarni tarqatish va qabul qilish bilan bogʻliq boʻlgan munosabatlar Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni bilan tartibga solinadi.

Milliy qonunchiligimizda barcha oʻtkazilayotgan islohot va jarayonlarda ommaviy axborot vositalari erkinligining suiisteʼmol etilishiga yoʻl qoʻymaslik bilan bogʻliq holatlar nazarda tutilgan. Ana shu muammo bilan bogʻliq qoidalar xalqaro hujjatlarda ham koʻzda tutilgan va bu borada tegishli kafolatlar mustahkamlab qoʻyilgan Bunga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasi, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisida”gi Xalqaro Paktning 19-moddasi, “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoyalash toʻgʻrisida Yevropa konvensiyasi”ning 10-moddasi va boshqa xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar misol boʻla oladi.

Xalqaro va xorijiy amaliyotda siyosiy debatlar, shu jumladan oʻtkazilayotgan barcha islohot va jarayonlarda oshkora bildiriladigan axborot va gʻoyalarning himoya darajasi nisbatan ancha yuqori hisoblanadi. Bu tushunarli va adolatli mezondir, zotan kishilar har bir odamga taalluqli boʻlgan narsalar va voqealardan imkon qadar toʻliq xabardor boʻlmogʻi lozim.



Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19- moddasiga muvofiq, “Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to’siqsiz o‘z e’tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va

g‘oyalarini har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat’i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini

o‘z ichiga oladi”.

“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro Paktning 19- moddasida axborot olish, tarqatish erkinligi va kafolatlari to‘g‘risida shunday deyilgan: “Har bir inson o‘z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega; bu huquq davlat chegaralaridan mustaqil holda yozma ravishda yoki matbuot vositasida yoki ifodalashning badiiy yoki o‘z ixtiyoriga ko‘ra boshqacha usullarda turli axborot g‘oyalarini qidirish, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi, deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida belgilangan insonning fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga tegishli konstitutsiyaviy me’yorlar inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy andozalarga to‘la mos keladi.